



INFORMATION ON CHRONOLOGY IN THE WORK "OSOR UL BAQIYA"

Marjona Sayfullaeva

Student

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Dhu'l-Hijjah, Hijri, lunar, month of Rajab, crescent, zij, 12th zodiac sign, leap year, solar year.

Received: 14.06.22

Accepted: 16.06.22

Published: 18.06.22

Abstract: This article gives a brief overview of the names of several months. There is also information about the names of the months of Iran, Syria, Muslims and other similar peoples, as well as the names of the Jewish months and the names of the Khorezmians.

“OSOR UL BOQIYA” ASARIDA XRONOLOGIYAGA OID MA’LUMOTLAR

Marjona Sayfullaeva

Talaba

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Zulhijja, hijriy, qamariy, rajab oyi, hilol, zij, 12-burj, kabisa yili, quyosh yili.

Annotatsiya: Ushbu maqolada bir qancha oy nomlariga qisqacha sharh berilgan. Bundan tashqari Eron, Suriya, musulmon oy nomlari va shu kabi boshqa xalqlarning oy nomlari haqida ma'lumot berilgan bo'lib, shu bilan birga yahudiy oy nomlari va xorazmliklarning oy nomlari ham keltirilgan.

СВЕДЕНИЯ О ХРОНОЛОГИИ В ПРОИЗВЕДЕНИИ «ОСОР УЛ БАКИЯ»

Маржона Сайфуллаева

Студент

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Зуль-хиджа, хиджра, лунный месяц, месяц раджаб, краткий обзор названий нескольких полумесяц, зидж, 12-й знак зодиака, месяцев. **Аннотация:** В этой статье дается обзор названий нескольких полумесяц, зидж, 12-й знак зодиака, месяцев. Имеются также сведения о

високосный год, солнечный год.

названиях месяцев Ирана, Сирии, мусульман и других подобных народов, а также названия еврейских месяцев и имена хорезмийцев.

KIRISH

Bizga ma'lumki Abu Rayhon Beruniy o'rta asrning eng buyuk allomalaridan biri sanaladi. Abu Rayhon Beruniy faqat olim bo'libgina qolmay, o'z zamonasida Xorazmning ko'zga ko'ringan siyosiy arboblardan biri hisoblanadi. Beruniy umri davomida juda ko'plab asarlar yozgan. Beruniyning bizgacha yetib kelgan asarlari ko'pchilikni tashkil qilmaydi. Nafaqat o'zimizda balki boshqa mamlakatlarda ham Beruniyning asarlari mashhurdir. Uning asarlar ko'plab tillarga turli xil olimlar tomonidan tarjima qilingan. Beruniyning bizgacha yetib kelgan asarlari "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Xronologiya", "Hindiston", "Qonuni Ma'sudiy", "Mineralogiya", "Geodeziya" va boshqalar. Olim barcha fanlarga qiziqqan. Bundan tashqari xronologiya, geografiya, matematika, geometriya, astronomiyaga oid asarlar yozgan. Beruniy o'z davrining deyarli barcha fanlarini mukammal bilganligi sababli qomusiy alloma deb nomlangan. Olim ko'plab ilm sohalarida tinimsiz qilgan va amalga oshirgan izlanishlari uchun mukofotlangan. Beruniyning asli sohasi bu fizika, falsafa, antropologiya bo'lgan. U umrining oxirigacha shu sohalar bilan shug'ullangan, ular ustida izlanishlar olib borgan va asarlariga ma'lumotlar to'plagan. Uning ona tili xorazmiy tili bo'lgan. U bu tildan tashqari fors, arab, yunon, ibroniy va suryoniy tillarini ham bilgan va 50 yoshida sanskrit tilini ham o'rgangan. Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida turli xil xalqlarning kalendarlari haqida ma'lumotlar uchraydi. Aynan ushbu asar olimga eng katta shuhrat keltirgan. Bundan tashqari asarda oy nomlari, astronomiyaga va xronologiyaga oid atamalar ham uchraydi. Kecha va kunduz, ularning mohiyati va boshlanish vaqti haqidagi ma'lumotlar bor. Keyingi o'rinlarda esa turli xil elatlarning oylarining nomi va o'sha oylarda nishonlanadigan bayramlar haqida ham ma'lumotlar uchraydi. Misol tariqasida Eron, Xorazm, So'g'diy, Yahudiy, Suriya, Rumliklarni keltirish mumkin. Lekin "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida xronologiya va metrologiyaga tegishli bo'lgan atamalar uchraydi. Ular qaysi o'rinda qanday ishlatilganligi haqida ma'lumotlarni o'rganish orqali bizga noaniq bo'lgan ba'zi atamalar va terminlarni tushuntirishga harakat qilgan. U o'zining asarida xalqlarning hayitlari, mashhur kunlarini yoritib bergan. Olimning bu asarni yozishdan asl maqsadi bu tushunish qiyin bo'lgan oy nomlarini, marosimlarni tushunish va ularni tushunarli qilib kelajak avlodga yetkazib berishdan iborat bo'lgan. U asarni yozishdan avval yozadigan barcha ma'lumotlarini tekshirib ko'radi. O'zi ishonch hosil qilgandan so'nggina yozadi. Bu orqali esa yozgan ma'lumotlarni haqiqiylikni asoslaydi.

ASOSIY QISM

Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida xronologiya va metrologiyaga oid ma’lumotlar berib o’tgan. Bir qancha oy nomlarini o’z asarida ishlatgan. Beruniy 362 yili 3 zulhijjada Xorazmning qadimgi Kot shahrida tug’iladi. Ba’zi ma’lumotlarga qaraganda “Zulhijja” arabcha so’z bo’lib musulmonlarning hijriy-qamariy yil hisobida 12 oyning arabcha nomi sanaladi. O’sha davrda bu oy sentyabr oyiga to’g’ri kelgan. Demak ma’lumot o’rnida shuni aytib o’tish joizki 1441 hijriy- shamsiy yilning Zulhijja oyining 1-10 kunlari 2020 milodiy yilning 22-31 iyul kunlariga to’g’ri kelgan edi. Ya’ni 22-iyulga to’g’ri keladi va 31-iyul kuni juma kuni bo’ladi. Juma kuni Zulhijja oyining 10-kuni bo’ladi va aynan o’sha kuni Iydul-Azho-Qurbon hayitining birinchi kuni bo’ladi.

Olim astronomiyaga ham qiziqqan va shu sohada ham izlanishlar olib borgan. U Kot shahrida muhim astronomik kuzatishlar o’tkazgan. Bu kuzatishlar uchun o’zi asbob-uskunalar ham yasagan. U bu o’rganishlari davomida Jayxun (Amudaryo)ning chap qirg’og’ida Xorazm shahridan janubda qandaydir bir qishloq uchun eng uzoq va eng yuqori ekliptika nuqtasini va azimutsiz ekliptikani aniqlashga muvassar bo’lgan. “Ekliptika” quyoshning osmon gumbazidagi yillik ko’rinma harakat yo’li sanaladi. Bu aylana bo’ylab sodir bo’ladi. O’zi asli ekliptika so’zining ma’nosi yunonchada “tutilish” degan ma’noni beradi. Ekliptika va ekvator bir-biri bilan ikki nuqtada — bahorgi tengkunlik va kuzgi tengkunlik nuqtalarida kesishadi. U zodiaqdagi 12 ta yulduz turkumidan o’tadi.

Olim bundan tashqari quyosh yili uzunligini aniq dalillar bilan hisoblab beradi. Quyosh turishi va kecha-kunduz barobarligi haqida ma’lumotlar keltiradi. Quyosh avji (apogiy) masalasiga to’xtalib o’tadi. Quyosh yilidagi xatoliklarni ko’rsatib ularni tahlil qiladi. Quyosh avji uzunligini hisoblab chiqadi va buni doiralarda ko’rsatadi. “Apogiy” yunoncha apogejos- yerdan uzoqda joylashgan degan ma’noni beradi. Demak apogiy so’zidan kelib chiqadigan bo’lsak quyosh yili uzunligi va quyosh avji apogiyga qarab aniqlanadi. Quyosh peshin vaqtida maksimal balandligiga kelsa bu yozgi quyosh turishi deb ataladi, agar minimal balandligida kelsa u holda bu qishki quyosh turishi bo’ladi. Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqib aytadigan bo’lsak quyosh har ikkala holatda ham bir yerda turadi. O’rnidan qo’zg’almaydi va o’zgarmaydi. Bunday holatni biz yilda ikki marta kuzatishimiz mumkin. Yozgi quyosh turish kunida kun uzun bo’ladi, tun esa aksincha qisqa bo’ladi. Biz bunday holatni 20 yoki 21 iyun kunlarida kuzatamiz. Qishki quyosh turishida kun qisqa bo’ladi va tun uzun bo’ladi. Bu 21-22 dekabrda sodir bo’ladi. Agar biz bunday holatlarni qutblarga nisbatan oladigan bo’lsak qutblarda bunday holat kuzatilmaydi. Ularda ikkala holat ham ro’y bermaydi. Kun va tun almashinishi o’z o’rnida davom etaveradi.

Beruniy o'zining munozaralarida va kuzatishlarida yilning zodiak bo'yicha bir marta aylanib kelish davriga obyektiv qaraydi. Chunki kuzatish natijalari har xil. Bunga sabab kuzatish davri qancha ko'p bo'lsa xato miqdori shuncha aniqroq seziladi, kuzatish ko'paygan sari esa xato aniqlasha boradi. Katta jismni kichik priborlar bilan kuzatish xatolikka olib keladi. U esa bunga e'tibor beradi. Aynan manashu kuzatish masalasi hozirgi kungacha o'z kuchini saqlab kelmoqda. Zodiak, zodiakl aylana – quyoshning yillik ko'rinma harakatida bosib o'tadigan yo'l sanaladi. Pribor biror ishni bajarish, hisoblash uchun kerak bo'ladigan moslama, apparat.

Asarda bundan tashqari hilol oyi haqida ham aytib o'tilgan. Arablar oyni asosan hilol ko'rinishidan boshlaganlar. Hilol so'zining ma'nosi o'zi yangi oy degani. Yangi oy quyosh botgandan so'ng asosan osmonning g'arbiy qismida ko'rinadi. Yangi oy ingichka o'roq shaklida bo'ladi. Hilol so'zi xalq tilida yangi oy deb atalsa, fan tilida esa vizual deb ataladi. Beruniy xorazmliklar oy nomlarini ishlatishda astronomik hukmlarni chiqargan. Xorazmliklar oy manzillarini 12 burjga bo'lganlar. Burjlarni esa o'z tillarida alohida nomlar bilan ataganlar. Beruniy burjlarning nomlarini xorazmchadan tashqari yana arabcha, forscha, suryoniycha, ibroniycha va hindcha nomlarini ham keltiradi. Burj yulduz turkumining nomlari sanaladi. Asosan 12 ta yulduz turkumi mavjud. Ular Dayav, Hut, Hamal, Savr, Javzo, Saraton, Asad, Sunbula, Mezon, Aqrab, Qazs va Jadiy hisoblanadi. Bu yulduzlar quyosh turkumining ko'rinma harakat yo'li bo'ylab joylashgan.

Beruniy rumliklar yili bilan quyosh yili o'rtasidagi tafovutni hindlar usuliga aylantiradi. Xorazmliklar bilan so'g'diylar yil boshini belgilash uchun ortiqcha kunlarni qo'shishda bir xil amal qiladi. Ular quyosh yili 115 yili 365 kundan, 116 yili esa bunga 1 oy va 1 kun qo'shiladi deb hisoblaganlar. Yerning quyosh aylanishiga ketadigan vaqt quyosh yili sanaladi. Quyosh taqvim 365 kunga teng.

Olim quyosh yillarida qamariy oylarni ham ishlatgan. Quyosh yillarida qamariy oylarini ishlatish sababi niyson oyining 14-sini bahorga- mevalar gullagan davrga to'g'ri kelishini bayon etadi. Beruniy quyosh yili va oy yili asosan sharq xalqlarida ishlatilishini izohlagan. Hijriy yil hisobi Payg'ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi va sallamning Makkai mukarramadan Madinai munavvaraga ko'chganlariga asos qilib olinadi. Shuning uchun uning nomi hijriy taqvim deyiladi. U ikkiga bo'linadi. Ular qamariy va shamsiya yil hisobi bo'ladi. Qamariy yil hisobi 622 yilning 16 iyuli juma kunidan boshlanadi. Oyning ketma-ket kelgan ikki bir xil fazasi orasidan o'tgan vaqt sinodik davriga asoslangan. 12 oydan iborat bo'lgan bir qamariy yil 354, 3671 kundan iborat. Qamariy yilda 1,3,5,7,9 va 11 oylar 30 kundan, qolganlari esa 29 kundan butun qilib olingan. Bu yil shamsiy yildan 11 kun qisqa, taxminan 354 kundan iborat. Qamariy yil hisobi Yaqin va O'rta Sharqning ko'pgina davlatlarda qo'llaniladi. Bundan tashqari namoz

o'qish vaqtlari ham aynan qamariy yil hisobi bo'yicha olinadi va aniq vaqti hisoblab chiqiladi. Bizning eng ulug' oylarimiz hisoblangan Ramazon va Qurbon hayitlarining sanalarini belgilashda biz aynan ushbu kalendardan foydalanamiz.

Olimning asarida kabisa yili haqida ma'lumotlar uchraydi. Kabisa yili har to'rt yilda bir marta keladi. Kabisa so'zi arabchada to'liq degan ma'noni anglatadi. Ba'zi ma'lumotlarda esa chuqurni to'ldirish ya'ni to'ldiruvchi degan ma'noni beradi. Kabisa yiliga asosan fevral oyiga to'g'ri keladi. Fevral oyi odatda 28 kunga teng. Lekin kabisa yili kelganda fevral oyi 28 kundan emas aksincha 29 kundan iborat bo'ladi. Kabisa yilini aniqlash unchalik qiyin emas. Bu yilni qachon kelishini aniqlash uchun yil to'rtga qoldiqsiz bo'linishi kerak. Shunday bo'lsagina kabisa yilini aniqlab bo'ladi. Agarda yilning oxirgi sonlari ikkita nol bilan tugab 400 ga bo'linmasa bunday yil kabisa yili sanalmaydi. Biz bunday yillarga misol tariqasida 1300, 1400, 1500, 1700, 1800, 2100 yillarni keltirishimiz mumkin. Bu yillarda kabisa yili bo'lmaydi. 2004, 2008, 2012, 2016, 2020 yillar kabisa yili sanaladi. Endigi kabisa yili 2024 yilda keladi.

Beruniy zijlar haqida ham ma'lumot bergan. Astronomlar zijlardagi hisoblashni nisf- nahor doirasining ko'rinib turadigan yarmidan boshlaganlar va shu asosida hisoblash ishlarini amalga oshirganlar. Zij so'zining ma'nosi forschada bo'yra degani. Zijlar qadimiy astronomik jadvallar sanaladi. Zijlar asosan oy va sayyoralar orasidagi harakatlarni kuzatish, sayyoralarning yulduzlar orasidagi harakatini kuzatish, oy va quyoshga taalluqli bo'lgan jadvallarni tuzish, yulduzlarning koordinatalari, aholi punktlari va shaharlarning joylashgan o'rinlari ya'ni koordinatalari haqida kuzatishlarni olib boradi. Bular asosida olingan ma'lumotlar asosida jadvallar tuziladi. Bunday ko'p jadvallarni o'z ichiga olgan astronomik asarlar to'plami "zijlar" sanaladi.

Hindlar oylarni hilol ko'rinishidan hisoblab, har bir 976 kunga qamariy bir oy qo'shishlarini va tarixlarini biron burj avvalgi daqiqasida bir-biriga uchrashuvidan boshlashlarini eshitdim deydi Abu Rayhon Beruniy. Ko'pincha ular shunday uchrashuvining ikki e'tidol nuqtasining birida duch kelishini kutadilar. Ular kabisa yilini "emosa" deb aytdilar. Ehtimol bu rostdir. "Etidol" bu kecha va kunduz barobarligi sanaladi.

Bundan tashqari hindlar astronomiyaga oid hukmlarida yoritqichlar orasidan oyni, uning manzillari va jafrlarini ishlatishni to'g'ri topib burjlarni ishlatmaganlar. Beruniy esa bu narsadan aniq xabardor kishiga duch kelmagan. Shu sababli bunga unchalik qiziqmagan va yuz o'girgan sanaladi. Jafr so'zi unchalik tushunarli so'z bo'lmagan. Olim jafr so'zini kichik deb atagan. Asosan bu so'zni manzillarning eng kichik qismlariga nisbatan ishlatgan.

Hindlarda ham yulduzlarning jadvali bo'lgan. Hindlarning kuzatishlarini ko'rsatgan va "sindi hind davrlari" deb tanilgan davrlarga "Arjabhaz kunlari" va "Arkand kunlari" degan nomlar qo'yilgan. Arjabhaz hindchada aryabhata kunlari degan ma'noni beradi. Bu Arjabhaz

tomonidan 500 yilda tuzilganligi sababli uning nomi bilan shunday atalgan. Aslida esa bu yulduzlarning jadvali sanaladi. Endi arkand kuniga to'xtaladigan bo'lsak bu hindchada harkand degan ma'noni anglatadi. Arkand sanskrit tilidagi bir astronomik asarning buzib aytilgan nomi sanaladi. Beruniyning o'zi ham bu so'zni qaytadan ishlagan.

Asarda xalifalik davrida qilingan ishlar haqida ham ba'zi bir ma'lumotlar uchraydi. Jumladan xalifalik davrida navro'z bayramini hazironning o'n yettinchisiga ko'chirishadi. "Haziron" bu Suriya yilining to'qqizinchi oyi sanaladi. Bu iyul oyiga to'g'ri keladi. Bu ishlarni Ibrohim as-Suliy bajardi 243 yil muharram oyida xalifotning butun chegaralariga maktublar yuboradi. Muharram oyi bu musulmon oyining birinchi oyi sanaladi. 243 yil muharrami 857 yilning apreli 30 mayga to'g'ri keladi. Muharram oyini hozirgi kun bilan solishtiradigan bo'lsak bu oy asosan avgust oyiga to'g'ri keladi.

Keyinchalik Al-Mu'tazid mavjud bo'lgan kunlarni nazro'zga qo'shadi va nazro'zni oxirgi kunga ko'chiradi. U kun o'sha yili xurdod mohning birinchi kuni bo'lib, chorshanba kuniga to'g'ri keladi. Bu esa o'z navbatida hazironning o'n birinchi kuniga to'g'ri kelib qoldi. Keyinchalik esa rumliklarda kabisa mavjudligini bilgach, nazro'z oyining ham kabisa bo'lsin deb navro'zni kabisa bilan belgilaydi. Xurdod moh eron oy-quyosh yilining uchinchi oyi sanaladi. Xurdod moh oyi mavjud bo'lgani kabi Obon moh oyi ham mavjud. Obon moh eron oyining sakkizinchi oyi hisoblanadi.

Asarda keyinchalik "fil yili" atamasi ham qo'llaniladi. Fil yili shuki, xudo bu yilda Ka'bani vayron qilish maqsadida kelgan habashlarning makrlarini o'zlariga qaytarib, ularni eng oxirlarigacha halok etadi. Fil yili taxminan 570 yil atrofi. Qur'ondagi fil surasida naql qilinishicha, habashlarning shu yili Makkaga qilgan yurishlari muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Ularning qo'shinlari ichida fillar ham bo'lgan. Shuning uchun bu yil "fil yili" deb ataladi.

Eronliklarning ham bir qancha oylari mavjud bo'lib, ular asosan 12 oyga bo'linadi. Ular asosan Farvardin moh, urdibihishit moh, xurdod moh, tir moh, murdod moh, shahrivar moh, mehrmoh, obon moh, ozar moh, day moh, mahman moh, isfandarmaz moh kabi nomlar bilan atalgan. Farvardin oyi navro'zning birinchi kuni hisoblangan. Bu oyda asosan yomg'ir yog'ishi, gullar ochilishi, daraxtlarning gullashi, yerdan o'simliklarning unib chiqishi ro'y beradi. Agarda biz buni hozirgi zamon bilan solishtiradigan bo'lsak bu oy bahorga to'g'ri keladi. Yuqorida aytganimizdek bu oyning birinchi kuni navro'z hisoblangan. Bizning o'zimizda aynan mart oyida navro'z bayrami nishonlanadi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak eronliklarning farvardin oyi o'zimizdagi mart oyiga to'g'ri keladi. Keyingisi bu urdibihishit oyi hisoblanadi. Bu oy sadoqat va yaxshiliklar oyi sanaladi. Xurdod moh oyiga keladigan bo'lsak bu oyning ma'nosi "xalq barobarligi" sanaladi. Bu oy o'simliklar, maxluqotlar va daraxtlar parvarish qilinadigan oy

hisoblanadi. Murdod moh oyiga keladigan bo'lsak bu oyning ma'nosi urug' va muhabbat hisoblanadi. Mehrmoh oyi bu o'z nomi bilan ataladigan oy sanaladi. Bu so'zning tavsiri "jon sevgisi" demakdir. Ba'zi bir ma'lumotlarga qaraganda "mehr" so'zi quyosh degan ma'noni ham anglatadi. Bunda asosan quyosh aynan shu oyda zohir bo'lganligi sababli ham shunday atalgan. Lekin biz oy nomidan kelib chiqadigan bo'lsak bu oy o'zi mehr oyi hisoblanadi. Ozar moh oyi sovuq kuchaygan paytda to'g'ri keladi. Agar bu oy haqida aytadigan bo'lsak bu oy qishga to'g'ri keladi. Day moh oyi bu oy hurmuzd deb ham atalgan. Bunday atalishiga sabab xudoning nomi ham shunday atalganligi. Buning ma'nosi "donishmand podshoh va yaratuvchi aql egasi" sanaladi. Isfandormo'z oyining ma'nosi aql va mulohaza demakdir.

Asarda musulmonlarning oy nomlari keltirilgan va musulmonlarda qo'llanilgan mashhur kunlar ustida so'z yuritgan. Musulmonlarda ham o'zlarining bir qancha oylari mavjud bo'lib, ular quyidagicha nomlangan: muharram, safar, rabi-il-avval, rabi-us-soniy, jumodul-avval, jumodus-soniy, rajab, sha'bon, ramazon, shavvol, zulqa'da, zilhijja. Muharram oyi birinchi kuni ulug'lanadi. Chunki bu yil avvali va sana boshlanishidir. Muharram oyini hozirgi kun bilan solishtiradigan bo'lsak bu oy 2021-yilning avgust oyiga to'g'ri keladi. Safar oyiga keladigan bo'lsak bu oy ham 2021-yilga to'g'ri keladi. Lekin bu oy sentabr oyi sanaladi va shu oyga to'g'ri keladi. Rabi-ul-avval oyi oktabr oyiga to'g'ri keladi. Rabi-us-soniy esa hozirgi kun tili bilan aytganda noyabr oyi sanaladi. Jumodul-avval bu oy 2021-yilning dekabr oyiga to'g'ri keladi. Jumodus-soniydan esa yangi yil boshlanadi. Chunki bu oy yanvar oyiga to'g'ri kelmoqda. Yanvar kelgach aynan qish fasli boshlanadi. Rajab oyiga keladigan bo'lsak fevraldan boshlanadi. Ya'ni bu oy 2022-yilning ikkinchi oyi sanaladi. Rajab oyiga keladigan bo'lsak bu oy ulug'lash, hurmat bajo keltirish degan ma'nolarni bildiradi. Bu oyga bunday nom berilishining sababi arablar bu oyni ulug'lagan va hurmat qilganliklari bois uni rajab deb ataganlar. Sha'bondan bahor boshlanadi. Bu oy mart oyiga to'g'ri keladi. Ramazon oyi o'z nomi bilan qanday oyligi ma'lum. Bu oy farz ro'za oyidir. Bunda oy aprelga to'g'ri keladi. Bunda odamlar ro'za tutishadi. Shavvol hozirgi vaqtda may oyiga to'g'ri keladi. Zulqa'da bu oy iyun oyi sanaladi. Bu oydan boshlab yoz fasli boshlanadi. Zulhijja oyi iyul oyi hisoblanadi. Shunday qilib musulmonlarning oy nomlari shulardan iborat. Ularni hozirgi kun bilan tadbiq qiladigan bo'lsak yuqorida aytib o'tganidek yanvar, fevral va shu kabi boshqa nomlar bilan ataladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam bu asardagi barcha oy nomlari o'ziga xos usulda yozilgan. Abu Rayhon Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asari orqali bizga noma'lum va tushunarsiz bo'lgan oy nomlari, yulduzlarning turkumlari, astronomiyaga oid bo'lgan ma'lumotlar va boshqa shu kabi ma'lumotlarni tushuntirishga harakat qilgan. Yuqorida aytilganidek olim har

bir oy nomlari va yil nomlari ustida juda ko‘plab ko‘zatishlar olib borgan. Ularning qanchalik darajada haqiqiyligini tekshirishga harakat qilgan. Ba’zi bir ko‘zatishlari uchun esa hatto o‘zi asboblari yasagan. Olim o‘z asarida Eron oylari, Yahudiy oylari va shu kabi boshqa oylar haqida ma’lumot berganini yuqorida aytib o‘tgandik. Aynan bu xalqlarning oy nomlarining atalishi bir-biriga o‘xshasada, ammo ma’no va mazmun jihatidan bir-birini takrorlamaydi. Bu asarda berilgan oy nomlarida asosan oyning o‘zi haqida emas, aksincha oyning kunlari haqida yozilgan. Kunlarida ro‘y bergan voqea-hodisalarga tegishli bo‘lgan ma’lumotlar uchraydi. Masalan, birinchi, ikkinchi, yigirma sakkizinchi, o‘ttizinchi va shu kabi kunlarda qanday voqea bo‘lganligi aytib o‘tilgan. Bunda asosan kimdir tug‘ilgan yoki qandaydir voqea va shunga o‘xshash ma’lumotlar yozilgan. Keyingi o‘rinlarda esa ma’lum bir oylarning kunlarida nishonlanadigan bayramlar haqida ham ma’lumot uchraydi. Asarda berilgan barcha ma’lumotlar oltinga teng ma’lumotlar sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abu Rayhon Beruniy, Abu-r-Rayhon Muhammad ibn Ahmad. Asarlar. /Tarjimon A. Rasulov. Izohlarni I. Abdullayev va A. Rasulov tuzgan. Mas’ul muharrirlar: I. Abdullayev va O. Fayzullayev/. T. T “Fan”, 1968.– B. 5.
2. O‘zbekiston Milliy Enslopediyasi. Birinchi jild. – Toshkent. 2000-yil. –B.150.
3. День летнего солнцестояния РИА НОВОСТИ. 16-dekabr 2021-yil asl nusxadan.
4. Mahmud Koshg‘ariy . Devonu lug‘otit turk. I-III tomlar. – Toshkent. 1960-1967.
5. Yushkevich A. P., Istoriya matematiki v sredniye veka, M., 1961; Kari Niyazov T. n., Astronomicheskaya shkola Ulugbeka, Izbr. trudi t. 6, T., 1967; M a medbe ili G. D., Osnovatel Maraginskoy observatorii Muhammed Nasireddin Tuyey, Baku, 1961; Geveliy Yan., Atlas zvyozdnogo neba, T., 1968.
6. Salohiddinova, M. F. (2022). TYPES OF MIGRATION. Gospodarka in Innowacje., 23, 446-451.
7. Odilov, B., & Karimov, N. Archaeological Research is an Important Source in the Study of Traditional Economic Activities of the Uzbek People (On the Example of Some Researchers of the Twentieth Century).
8. Elyor, X., & Ruhsora, H. (2022). MIGRATION POLICY IN CENTRAL ASIA AND ATTRACT HIGH QUALIFIED LABOR LABOR IN UZBEKISTAN IN THE CONTEXT OF SOCIAL, ECONOMIC AND POLITICAL STABILITY. RESEARCH AND EDUCATION, 1 (2), 341-348.

9. Bogli Odilov, B. A., & Karimov, N. R. (2020). Analysis of Targeted Research in 20-30 Years of the XX Century. *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology*, 17(6), 8887-8893.
10. Spirina, L. V., & Kondakova, I. V. (2010). Migratsiya kletok i onkogenez. *Russian Journal of Oncology*, 15(3), 49-53.
11. Bobir, O. (2019). Study of traditional irrigation system in Uzbekistan (In the example of the investigations of the second half of XIX century and XX century). *Scientific Journal*, 2(12), 85-95.
12. Migration processes among developing countries: the Middle East.-USA: Massachusetts Institute of Technology, 1998.-P.24.
13. Kiponas, D., & Marchyulenene, D. (2006). Internal transfer of Cs 137 and K 40 in higher plants; Vnutrennyaya migratsiya Cs 137 i K 40 v vysshikh rasteniyakh.
14. Polvanov, J. N. (2022). HISTORY OF UZBEKISTAN AND SOURCES OF ITS STUDY. *Oriental Journal of History, Politics and Law*, 2(1), 27-37.
15. Kiponas, D., & Marchyulenene, D. (2006). Internal transfer of Cs 137 and K 40 in higher plants; Vnutrennyaya migratsiya Cs 137 i K 40 v vysshikh rasteniyakh.
16. Polvanov, J. N. (2021). THE IMPORTANCE OF PUBLIC CONTROL IN BUILDING A DEMOCRATIC STATE BASED ON THE RULE OF LAW AND THE FORMATION OF CIVIL SOCIETY AND IN THE MANAGEMENT OF SOCIETY. *Oriental Journal of History, Politics and Law*, 1(1), 4-8.
17. Ryazantsev, S. V. E., & Pis'mennaya, E. E. E. (2013). Obrazovatel'naya i trudovaya migratsiya v'etnamtsev v Rossiyu: tendentsii i potentsial. *The Russian Journal of Vietnamese Studies*, 1(3), 65-74
18. Polvanov, J. N. (2021). Different Ways For Human Capacity Building in Poverty Reduction in Uzbekistan. *Oriental Journal of Economics, Finance and Management*, 1(1), 1-5.
19. Odilov, B., & Karimov, N. Archaeological Research is an Important Source in the Study of Traditional Economic Activities of the Uzbek People (On the Example of Some Researchers of the Twentieth Century).